

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida 2026-yilning yarim yilligi davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralari ko‘rish va natijalari to‘g‘risida

AXBOROT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-240- sonli qaroriga muvofiq Jamiyat tomonidan o‘z funksiyalarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda «e-anticor.uz» elektron platformasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlari amalga oshirildi. Baholash natijasida 55 ta funksiyadan **21 ta** funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi «past», **26 ta** funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi «o‘rta» va **8 ta** funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi «yuqori» o‘lchovlarda baholandi hamda Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar **xaritasi**, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **dasturi**, korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan tuzilma va **lavozimlar ro‘yxati** shakllantirildi.

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mavjud xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijalariga doir ayrim **fakt va raqamlar**:

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida **27 ta** shtat birligidan iborat **komplayens tuzilmalari** tashkil etilib, munosib nomzodlar bilan to‘ldirildi.

- **13 ta xizmat tekshiruvi** natijasida **12 nafar** xodim **intizomiy** javobgarlikka tortildi, **6 nafar xodim** egallab turgan **lavozimidan ozod etildi**. Yana **1 ta** xizmat tekshiruvi materiallari **huquqni muhofaza qiluvchi organlariga** yuborildi;

- monitoring va nazorat tadbiri davomida **6,4 mlrd so‘m** mablag‘lar **maqsadsiz sarflanishining oldi olindi**, **1,2 mlrd so‘mlik** moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etildi;

- **4 ta mavjud** manfaatlar to‘qnashuvi hamda **9 ta ehtimoliy** manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rildi;

- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati samaradorligini hamda aholi va jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida onlayn so‘rovnomalar o‘tkazilib, ayni paytda natijalari tahlil qilinmoqda;

- daromadlar tushumini nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni

ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish borasida bir qator ishlar, xususan, Jamiyatning **"E-nakl"** (e-nakl.uz) tizimida yuk tashish hamda bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan tushadigan barcha daromadlarni hisobga olish tahlil qilish uchun mo'ljallangan axborot tizimini yaratish borasida ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda;

- **"hrm.railway.uz"** platformasida xodimlarning ma'lumotlarini saqlash, xodimlarni o'qitish va rivojlantirish, davriy va navbatdan tashqari attestatsiyadan hamda tibbiy ko'rikdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilib, 1S dasturi tizimi ma'lumotlari bilan o'zaro integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda;

- yo'lovchi va yuk poyezdlarida harakatlanuvchi lokomotivlarda mashinistlar tomonidan foydalaniladigan qog'oz shakldagi marshrut varaqalari butunlay bekor qilinib, **"Mashinistning elektron marshruti"** axborot tizimi joriy etildi.

- 2025-yil yakunlari bo'yicha Jamiyat faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi reytingida **"yaxshi"** toifasiga kiritildi.

Bundan tashqari, tizimda aniqlangan korrupsiyaga oid jinoyatlar va huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratgan sharoitlar aniqlanib tahlil qilindi. Xususan, sodir etilgan jinoyatlarning aksariyatida fuqarolar ishonchiga kirib, firibgarlik yo'li bilan ishga joylashtirish va'dasi bilan o'zganing mulki va pul mablag'larini qo'lga kiritish, tashkilot tovar moddiy boyliklari va mablag'larini talon-toraj qilish, shuningdek mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish bilan bog'liq holatlar kuzatilgan. Mazkur holatlarni bartaraf etish maqsadida ishga joylashtirish bilan bog'liq vositachilik holatlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, forenzik tahlil o'tkazish, tovar-moddiy boyliklar va moliyaviy mablag'lar harakati ustidan kutilmagan tekshiruvlar hamda nazorat tadbirlarini, har bir qoidabuzarlik yuzasidan profilaktik choralar o'tkazish ishlari amalga oshirilmoqda.